



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 25-oktabr

582-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ–358-son qarori ijrosi haqida”gi 494-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizning sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish, shuningdek, Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ–358-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-oktyabrdagi 494-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-oktyabrdagi 494-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ–358-oktyabrdagi PQ – 347-son qarori bilan:

Quyidagilarni nazarda tutuvchi Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi (keyingi o‘rinlarda — Strategiya) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

a) Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish bo‘yicha erishish lozim bo‘lgan maqsadli ko‘rsatkichlar, shu jumladan:

sun’iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSh dollariga yetkazish;

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida sun’iy intellekt asosida ko‘rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish;

sun’iy intellekt yo‘nalishida faoliyat yurituvchi ilmiy laboratoriyalar sonini 10 taga yetkazish hamda yuqori quvvatli hisoblash serverlarini ishga tushirish;

Hukumatning sun’iy intellektga tayyorlik indeksida (Government AI Readiness Index) O‘zbekiston Respublikasining birinchi 50 ta o‘rindagi davlatlar qatoriga kirishiga erishish;

b) Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalar:

sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani shakllantirish, sohada standartlarni takomillashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash;

ma’lumotlarni qayta ishlash hamda sun’iy intellektga asoslangan loyihalarni ishga tushirish uchun texnik infratuzilma yaratish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida mazkur yo‘nalishdagi ustuvor loyihalarni amalga oshirish;

sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha aholining bilim va ko‘nikmalarini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish;

Strategiyani amalga oshirish doirasida quyidagilar:

Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini 2024–2026- yillarda amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq;

Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida shakllantiriladigan “katta ma’lumotlar” ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

“katta ma’lumotlar” bazasini yaratish uchun vazirlik va idoralar shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya qilgan holda (shu jumladan, ma’lumotlar egasizlantirilgan holda) 2025-yil 1-mayga qadar mazkur qarorning 3-ilovasiga muvofiq ma’lumotlarning Raqamli texnologiyalar vazirligiga taqdim etilishini ta’minlanishi;

Raqamli texnologiyalar vazirligi tuzilmasidagi “Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi” davlat muassasasi negizida “Sun’iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish markazi” davlat muassasasi (keyingi o‘rinlarda – Markaz) tashkil etilganligi;

bunda:

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat ishtirokidagi korxonalar Markaz so‘roviga asosan (qonunchilik hujjatlari bilan qo‘riqlanadigan ma’lumotlardan tashqari) sun’iy intellektni rivojlantirish yo‘nalishida zarur bo‘lgan ma’lumotlardan foydalanish uchun axborot tizimlari, ma’lumotlar bazalariga ulanish va to‘siqsiz foydalanish imkoniyatini yaratishi;

axborot tizimlari va dasturiy ta’minotlarning sun’iy intellekt texnologiyalari asosida yaratilganligi va bunday texnologiya qo‘llanganligi Markaz tomonidan ekspertizadan o‘tkazilishi;

bank tizimini sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘yicha ilg‘or sohaga aylantirish va sohada xalqaro tajribani keng qo‘llash maqsadida:

a) Markaziy bankning Loyihalar va jarayonlarni boshqarish xizmati hamda Kiberxavfsizlik markazi tomonidan firibgarliklarning oldini olish, to‘lov tizimlari va xavflarni boshqarish yo‘nalishida sun’iy intellekt texnologiyalari joriy qilinishi;

b) davlat ulushiga ega tijorat banklari quyidagi yo‘nalishlarda sun’iy intellekt sohasidagi loyihalarni amalga oshirishi ko‘zda tutilganligi:

aholi va tadbirkorlik sub’ektlariga bank xizmatlarining qulayligi va sifatini oshirish;

“katta ma’lumotlar”ni qayta ishlash texnologiyalari va sun’iy intellektni qo‘llash orqali moliyaviy xavflarni boshqarish va mijozlarning to‘lov qobiliyatini baholash;

bank xizmatlarini avtomatlashtirish, shuningdek, axborot xavfsizligi va firibgarlikka qarshi kurashish bo‘yicha zamonaviy mexanizmlarni joriy etishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining raqamlashtirish bo‘yicha loyiha menejeri J.Axmadaliyev tegishli manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda mazkur qaror ijrosi yuzasidan kelib chiqadigan topshiriqlar ijrosini ta’minlash choralari ko‘rsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya- iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov